

---

# QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



## Qonunchilikdagi yangiliklar

Auditorlik tashkilotini reestrغا kiritish tartibi belgilandi

Hukumat qarori (387-son, 15.08.2023 y.) bilan Auditorlik tashkilotini Auditorlik tashkilotlarining reestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlandi

Reglamentga ko'ra, ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat etadi yoki YalDXP (my.gov.uz) orqali ro'yxatdan o'tadi.

So'rovnomaga to'ldirilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi (vakolatli organ)ga yuboriladi.

Vakolatli organ so'rovnomaga tushgan kundan boshlab 5 ish kuni mobaynida auditorlik tashkilotini reestrغا kiritadi yoki uni rad etadi.

Vakolatli organ quyidagi hollarda davlat xizmatini ko'rsatishni rad etadi:

ariza beruvchi tomonidan tegishli kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmasa;

auditorlik tashkiloti "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasi talablariga muvofiq bo'lmasa.

Davlat xizmati ko'rsatilganlik uchun to'lov undirilmaydi.

**Abdumannon Umriddinov - So'x tumani adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi sho'ba mudiri**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-08-21 18:56:56